

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONDA SAN'AT SOHASINING RIVOJLANISHI VA G'OYAVIY-MADANIY VAZIFALARI

Nishonov San'atbek Kayumovich

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Tompson xususiy maktabi o'qituvchisi

Email: sanatbek.nishonov@mail.ru

Tel.: 97 239 99 77

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda teatr, musiqa, tasviriy san'at, kino va sirk san'atining rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Urush sharoitida san'at sohasi jamiyatni g'oyaviy safarbar etish, front va front orti o'rtasidagi ma'naviy aloqani mustahkamlash, jangchilar ruhiyatini ko'tarish va mehnatkashlarni g'alabaga safarbar qilish vazifalarini bajardi. Maqolada teatr repertuarining harbiy sharoitga moslashtirilishi, tarixiy-vatanparvarlik mavzularining kuchayishi, musiqiy brigadalar faoliyati, front konsertlari, tasviriy san'atdagi plakat va portret janrlari, kinoxronika va badiiy filmlar, shuningdek, milliy sirk jamoasining shakllanishi yoritiladi. Evakuatsiya qilingan ijodiy jamoalar va san'atkorlarning O'zbekiston madaniy hayotiga ta'siri ham alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston san'ati, teatr, musiqa, kino, tasviriy san'at, sirk, front brigadalari, evakuatsiya, madaniy safarbarlik, vatanparvarlik.

DEVELOPMENT AND IDEOLOGICAL-CULTURAL FUNCTIONS OF ART IN UZBEKISTAN DURING THE SECOND WORLD WAR

Abstract. This article analyzes the development of theatre, music, fine arts, cinema, and circus art in Uzbekistan during the Second World War. Under wartime conditions, art served the functions of ideological mobilization, strengthening moral

ties between the front and the home front, raising soldiers' morale, and mobilizing workers for victory. The article examines the adaptation of theatre repertoires to wartime needs, the rise of historical and patriotic themes, the work of musical brigades, front-line concerts, poster and portrait genres in fine arts, newsreels and feature films, as well as the formation of the national circus collective. Special attention is also paid to the influence of evacuated creative groups and artists on Uzbekistan's cultural life.

Keywords: Second World War, art of Uzbekistan, theatre, music, cinema, fine arts, circus, front-line brigades, evacuation, cultural mobilization, patriotism.

РАЗВИТИЕ И ИДЕЙНО-КУЛЬТУРНЫЕ ФУНКЦИИ ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация. В статье анализируются особенности развития театра, музыки, изобразительного искусства, кино и циркового искусства в Узбекистане в годы Второй мировой войны. В условиях военного времени искусство выполняло задачи идейной мобилизации общества, укрепления духовной связи между фронтом и тылом, поднятия боевого духа воинов и мобилизации трудящихся на победу. Рассматриваются перестройка театрального репертуара в соответствии с требованиями военного времени, усиление историко-патриотической тематики, деятельность музыкальных бригад, фронтовые концерты, плакатный и портретный жанры в изобразительном искусстве, кинохроника и художественные фильмы, а также становление национального циркового коллектива. Отдельное внимание уделяется влиянию эвакуированных творческих коллективов и деятелей искусства на культурную жизнь Узбекистана.

Ключевые слова: Вторая мировая война, искусство Узбекистана, театр, музыка, кино, изобразительное искусство, цирк, фронтовые бригады, эвакуация, культурная мобилизация, патриотизм.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston madaniy hayoti murakkab va ziddiyatli sharoitda rivojlandi. Urush boshlanishi bilan jamiyatning barcha sohalari kabi san’at ham harbiy davr ehtiyojlariga bo‘ysundirildi. Teatr, musiqa, kino, tasviriy san’at va sirk sahnasi faqat estetik zavq beruvchi vosita sifatida emas, xalqni ruhlantiruvchi, front va front ortini birlashtiruvchi, g‘alabaga ishonchni mustahkamlovchi ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ldi. Urush davrida san’atning ijtimoiy vazifasi keskin kuchaydi. Sahna asarlari, qo‘shiqlar, konsert dasturlari, plakatlar, kinoxronikalar va sirk tomoshalari orqali xalq ongiga Vatan himoyasi, jangchi jasorati, frontga yordam, mehnat fidoyiligi, dushmanga nafrat va g‘alabaga ishonch g‘oyalari singdirildi. Shu bilan birga, san’at sohasi mafkuraviy nazorat, repertuar tanqisligi, kadrlar yetishmovchiligi va tezkor ijod talablari bilan ham yuzmayuz keldi.

Asosiy qism. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda san’at sohasi jamiyatning boshqa tarmoqlari kabi harbiy davr ehtiyojlariga moslashtirildi. Teatr, musiqa, tasviriy san’at, kino va sirk san’ati xalqni g‘alabaga ruhlantirish, front va front orti o‘rtasidagi ma’naviy aloqani mustahkamlash, jangchilar va mehnatkashlarda Vatanga sadoqat, dushmanga nafrat hamda g‘alabaga ishonch tuyg‘ularini kuchaytirishga xizmat qildi. San’atning mazkur vazifasi, avvalo, uning ommaviy auditoriyaga tez ta’sir ko‘rsatish imkoniyati bilan bog‘liq edi. Sahna asarlari, konsert dasturlari, jangovar qo‘shiqlar, plakatlar, kinoxronikalar va ko‘chma tomoshalar urush davri madaniy safarbarligining muhim tarkibiy qismiga aylandi [1; 2].

Urushning dastlabki oylaridanoq teatr san’ati oldiga repertuarni harbiy sharoitga moslashtirish vazifasi qo‘yildi. 1941-yil 28-noyabrda san’at xodimlari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishda teatrlar repertuarida mudofaa mavzusidagi asarlar yetarli emasligi, viloyat teatrlaridagi ayrim sahna asarlarining badiiy saviyasi pastligi tanqid qilindi [1]. Bu holat urush boshlangan pallada teatr tizimi yangi tarixiy sharoitga tayyor

emasligini, biroq qisqa muddatda repertuar siyosatini o'zgartirishga majbur bo'lganini ko'rsatadi.

Urush yillarida O'zbekistonda jami 51 ta teatr jamoasi faoliyat ko'rsatdi, ularning 16 tasi mamlakatning g'arbiy hududlaridan evakuatsiya qilingan teatrlar edi. 1941-yil iyulidan 1944-yilgacha respublika teatrlarida 203 ta yangi dramatik asar sahnaga qo'yildi, 13 568 ta spektakl va konsert namoyish qilindi, 6 milliondan ortiq tomoshabinga xizmat ko'rsatildi [2]. Bu raqamlar og'ir harbiy sharoitda ham teatr san'ati keng ommaga ta'sir etuvchi muhim madaniy vosita bo'lib qolganini tasdiqlaydi.

Hamza nomidagi akademik drama teatri urush yillarida respublika teatr hayotining yetakchi markazlaridan biri bo'ldi. Teatr sahnasida "Front", "Nemis bosqinchilari", "Ukrain qizi", "Burgutning parvozi", "Muqanna", "Jaloliddin Manguberdi", "Sepsiz qiz" kabi asarlar namoyish etildi. 1941–1944-yillar davomida teatrdan 16 ta yangi pyesa sahnalashtirilib, ular 1100 martadan ortiq namoyish qilindi va 440 mingga yaqin tomoshabin tomonidan ko'rildi [2; 3]. Teatr repertuarida zamonaviy urush mavzulari bilan bir qatorda tarixiy qahramonlikka murojaat qilish an'anasi ham kuchaydi. Tarixiy dramalar urush yillarida alohida g'oyaviy vazifa bajardi. "Muqanna" va "Jaloliddin Manguberdi" kabi asarlarda tarixiy voqealar zamonaviy davrning vatanparvarlik ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirildi. "Muqanna" dramasi VIII asrdagi arab istilosiga qarshi kurash tasvirlangan bo'lsa-da, uning sahna talqini orqali bosqinchilarga qarshi kurash, xalq ozodligi va Vatan himoyasi g'oyalari ilgari surildi [3]. Bu usul tarixiy xotira orqali urush davri tomoshabinini ruhlantirishga xizmat qildi.

Urush yillarida Muqimiy nomidagi o'zbek musiqali drama va komediya teatri ham faol ijod qildi. 1941-yil avgustida "Qurbon Umarov" musiqali dramasi sahnalashtirildi. Keyingi repertuarlarda "Muqanna", "Tohir va Zuhra", "Alpomish" kabi asarlarni sahnaga olib chiqish masalalari muhokama qilindi [4]. Bu teatr faoliyatida milliy-dramatik an'analar, xalq dostonlari va zamonaviy harbiy mavzular

o‘zaro bog‘langanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, teatrlar faoliyatida kadrlar yetishmovchiligi, badiiy rahbarlik, repertuar tanlash va tomoshabin jalb qilish kabi muammolar ham mavjud edi [4]. O‘zbek davlat opera va balet teatri urush yillarida musiqali sahna janrlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutdi. “Davron ota”, “O‘zbekiston qilichi”, “Ulug‘bek”, “Mahmud Torobiy” kabi asarlar sahnalashtirildi. “O‘zbekiston qilichi” musiqali dramasida o‘zbek milliy diviziyasining tashkil etilishi va Moskva ostonalaridagi janglarda ko‘rsatgan jasorati badiiy talqin qilindi [5]. Opera va musiqali drama sahnasida tarixiy qahramonlik, jangovar ruh va milliy g‘urur g‘oyalari o‘zaro uyg‘unlashdi. Rus teatr jamoalari ham O‘zbekiston san‘at muhitida faol ishtirok etdi. M. Gorkiy nomidagi Davlat rus drama teatri urush yillarida 32 ta yangi pyesani sahnalashtirdi. “Professor Mamlok”, “Rus kishilari”, “Bosqin”, “Stalingradliklar” kabi asarlar frontdagi kurash, sovet kishisining jasorati va dushmanga qarshi nafrat ruhida yaratilgan edi [6; 7]. Evakuatsiya qilingan teatrlar mahalliy sahna muhitiga yangi ijro uslublari, sahna madaniyati va repertuar tajribasini olib kirdi. Viloyat teatrlarining faoliyati ham urush davri madaniy hayotida muhim o‘rin egalladi. Farg‘ona, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va boshqa hududlardagi teatrlar drama, musiqali drama, konsert va ko‘chma chiqishlar orqali aholiga madaniy xizmat ko‘rsatdi. Qashqadaryo viloyati musiqali drama va komediya teatrining uchinchi toifadan ikkinchi toifaga o‘tkazilishi, 1943–1944-yillarda faol ijodiy chiqishlar qilishi viloyat teatrlarining urush davri madaniy safarbarligidagi ishtirokini ko‘rsatadi [8]. Viloyatlarda yangi teatr jamoalarining tashkil etilishi teatr san‘atining hududiy qamrovini kengaytirdi.

Musiqqa san‘ati ham urush yillarida xalq ruhiyatini ko‘taruvchi asosiy vositalardan biriga aylandi. Qo‘shiq, marsh, opera, simfonik asar, romans va konsert dasturlari orqali jangovar ruh, Vatan himoyasi, frontga yordam va mehnat fidoyiligi targ‘ib qilindi. Urushning dastlabki olti oyida O‘zbekistonda 100 ga yaqin marsh va mudofaa mavzusidagi qo‘shiq yaratildi, 1942-yil oxiriga kelib bunday qo‘shiqlar soni

400 taga yetdi [9]. Bu qo'shiqlar harbiy qismlar, gospitallar, zavodlar, kolxozlar va radio orqali keng ijro etildi. O'zbek bastakorlari va ijrochilari yaratgan harbiy qo'shiqlarda ona yurt, jangchi, qasamyod, qasos, g'alaba, sog'inch va fidoyilik obrazlari yetakchi o'rin tutdi. Uyg'un so'ziga bastalangan "Jangchilar qo'shig'i", shuningdek, "Всегда готов Узбекистан", "Письмо матери", "Родная Москва" kabi asarlar urush davri musiqiy muhitining g'oyaviy yo'nalishini ifodaladi [9; 10]. Qo'shiqlarning sodda ohangi va aniq mazmuni ularni ommaviy ijroga qulay qildi. Front brigadalari faoliyati musiqa va sahna san'atining urush davridagi eng muhim ko'rinishlaridan biri edi. San'atkorlarning konsert brigadalari harbiy qismlar, front chiziqlari, gospitallar va partizan otryadlarida chiqishlar uyushtirdi. Urush davomida o'zbekistonlik san'atkorlarning 30 ta konsert brigadasi tuzilib, ular armiya qismlarida 5000 dan ortiq konsert berdi [11]. Bu konsertlar jangchilarga ma'naviy dalda berish, ularni front ortidagi xalq bilan bog'lash va g'alabaga ishonchni kuchaytirishda muhim rol o'ynadi.

Halima Nosirova, Tamaraxonim, Gavhar Rahimova, Boborahim Mirzayev, Roziya Karimova, F. Sodiqov kabi san'atkorlar front brigadalari faoliyatida faol qatnashdi. Tamaraxonim urush boshlangandan so'ng "Qahramonlar marshi", "Kurash sari olg'a", "Onaning vasiyatlari" kabi yangi qo'shiqlar tayyorladi, harbiy qismlarda o'nlab konsertlar berdi [11]. Gavhar Rahimova rahbarligidagi brigada 1942-yil sentabrdan noyabrgacha frontning turli uchastkalarida 76 marta konsert bergani front san'atining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi [11]. Musiqa san'atida simfonik janr ham rivojlandi. M. Ashrafiy, G. Mushel, V. Uspenskiy, M. Shteyberg kabi bastakorlar qahramonlik, milliy meros va urush voqeligini musiqiy obrazlar orqali ifodalashga harakat qildi. Muxtor Ashrafiyning "Qahramonlik simfoniyasi" o'zbek xalq kuylariga asoslangan bo'lib, unda tinch hayotning buzilishi, kurash va g'alabaga ishonch musiqiy kompozitsiya orqali ifodalandi [10]. Bu jarayon o'zbek professional musiqasida yirik janrlarning rivojlanishiga xizmat qildi. Evakuatsiya qilingan musiqa o'quv yurtlari va

musiqachilar O‘zbekistonda professional kadrlar tayyorlashga katta ta’sir ko‘rsatdi. Leningrad konservatoriyasining Toshkentdagi faoliyati, evakuatsiya qilingan professor va ijrochilarning konsert hamda pedagogik ishlari o‘zbek musiqiy muhitiga yangi tajriba olib kirdi [10]. 1943-yilda San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi esa musiqa, teatr va xalq cholg‘ularini ilmiy o‘rganish yo‘lidagi muhim bosqich bo‘ldi [10]. Tasviriy san’at urush davrida tezkor targ‘ibot vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Rassomlar portret, plakat, karikatura, etyud va devoriy gazeta janrlarida ijod qildi. Urush yillarida O‘zbekiston rassomlari 216 ta portret, 36 ta devoriy gazeta, 36 ta plakat, 180 ta etyud yaratib, 18 ta ko‘rgazma tashkil etdi [12]. Asarlarda Vatan himoyasi, frontga yordam, dushmanga nafrat, mehnat fidoyiligi va qasos mavzulari yetakchi o‘rin egalladi. Plakat va karikatura janrlari ayniqsa tezkorligi bilan ajralib turdi. “Hamma narsa g‘alaba uchun”, “Nemis bosqinchilariga o‘lim!”, “Dnepr uchun olg‘a”, “Qizil Armiyaga jo‘natish”, “Partizanlar” kabi asarlar urush davri siyosiy-badiiy ruhini aks ettirdi [12]. O‘. Tansiqboyevning frontda bo‘lib, urush taassurotlari asosida “Urush yo‘llaridan” turkumini yaratgani tasviriy san’atda bevosita kuzatuv va hujjatlilik unsurlarining kuchayganini ko‘rsatadi [12]. Evakuatsiya qilingan rassomlar hisobiga O‘zbekiston rassomlari uyushmasi tarkibi kengaydi. Uyushma a‘zolari 100 nafardan 250 nafargacha oshdi [12]. Samarqand urush yillarida tasviriy san’atning muhim markaziga aylandi. P. Benkov, S. Gerasimov, D. Moor, R. Falk kabi rassomlarning Samarqanddagi faoliyati mahalliy tasviriy san’at maktabining tajriba va uslub jihatidan boyishiga ta’sir ko‘rsatdi [12].

Kino san’ati urush davrida sovet targ‘ibotining eng ta’sirchan vositalaridan biriga aylandi. Toshkent kinostudiyasi 1941-yilning o‘zida 43 ta kinoxronika chiqardi. “Ordenli O‘zbekiston san’ati”, “Biz g‘alaba qilamiz”, “Front, biz sen bilan” kabi kinoxronikalar urush davri hayotini keng auditoriyaga yetkazdi [13]. Kino front voqealari, sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi, madaniyat va san’at xodimlari faoliyatini tasvirlash orqali g‘oyaviy safarbarlik vazifasini bajardi. 1942-yildan boshlab jangovar

kino to'plamlar va badiiy filmlar yaratildi. "8-kinoto'plam", "Nafrat halqasida", "Jonajon sohillar", "Ikki jangchi", "Aleksandr Parxomenko", "Nasriddin Buxoroda" kabi filmlar urush davri kinosining asosiy mahsulotlari bo'ldi [13; 14]. "Nasriddin Buxoroda" filmi xalq orasida keng shuhrat qozondi va tarixiy muhit, xalqona kulgi hamda donishmandlik obrazlarini kino tilida ifodaladi [13]. Kino sohasida evakuatsiya jarayoni katta rol o'ynadi. Moskva, Leningrad, Kiyev va Odessadan 200 ga yaqin kino ijodkori Toshkentga ko'chirildi. Ya. Protazanov, M. Romm, G. Kozinsev, L. Trauberg, A. Zarxi, L. Lukov, I. Xeyfits kabi kino ustalarining faoliyati Toshkent kinostudiyasining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirdi [14]. Shu bilan birga, filmlar ustida ishlarning cho'zilishi, ortiqcha mablag' sarfi, sifatsiz kadrlar va milliy kino xodimlarini tayyorlashdagi sustkashlik kabi muammolar ham mavjud edi [14].

Sirk san'ati ham urush yillarida ommaviy madaniy xizmat ko'rsatishning muhim shakli sifatida rivojlandi. 1942-yil 6-iyunda o'zbek ko'chma sirk kollektivini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilindi [15]. Milliy sirk jamoasiga professional sirk artistlari, xalq teatri ijrochilari va sportchilar jalb qilindi. "Chavandoz yigitlar", "Besuyaklar", qilichbozlar, yog'ochoyoqchilar, akrobatlar, "O'zbekiston dorbozlari" attraksioni va Yusufjon qiziq Shakarjonov chiqishlari dastlabki dasturlardan o'rin oldi [15].

1944-yilda o'zbek sirk jamoasining Moskvada gastrol safarida bo'lishi milliy sirk san'atining ittifoq miqyosida tanilishiga xizmat qildi [15]. Sirk san'ati xalqona tomosha, jasorat, jismoniy mahorat va kulgi unsurlarini birlashtirib, urush sharoitida tomoshabinlarga ruhiy yengillik ham berdi. Shu ma'noda u teatr va musiqa kabi to'g'ridan-to'g'ri targ'ibot vositasi bo'lish bilan birga, xalqning ruhiy bardamini saqlashga xizmat qilgan ommaviy san'at turi sifatida ham ahamiyatli bo'ldi.

Urush davri san'ati yutuqlar bilan birga ichki ziddiyatlarga ham ega edi. San'at siyosiy-mafkuraviy buyurtmaga bo'ysundirildi, ko'plab asarlar tezkor tarzda yaratildi, ayrim sahna va kino mahsulotlarida shiorbozlik, sxematik obrazlar va yuzaki yechimlar

uchradi. Teatr tanqidchiligi va san'atshunoslik tahlili ko'pincha targ'ibot vazifasi bilan cheklanib, asarlarning kamchiliklari chuqur ochib berilmadi [9; 10]. Bu holat urush sharoitida san'atning mustaqil estetik izlanishdan ko'ra g'oyaviy safarbarlik vazifasiga ko'proq yo'naltirilganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston san'ati respublika madaniy taraqqiyotining keyingi bosqichlari uchun muhim tajriba yaratdi. Teatr sahnasida tarixiy-vatanparvarlik mavzusi kuchaydi, musiqada ommaviy qo'shiq va simfonik janrlar rivojlandi, tasviriy san'atda plakat va portret maktabi faollashdi, kinoda hujjatli va badiiy yo'nalishlar kengaydi, sirkda milliy professional jamoa shakllandi. Evakuatsiya qilingan ijodiy jamoalar va mahalliy san'atkorlar hamkorligi O'zbekiston san'at muhitini yangi uslub, tajriba va professional maktablar bilan boyitdi.

Xulosa. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda san'at sohasi jamiyatning ma'naviy hayotida alohida o'rin egalladi. Teatr, musiqa, tasviriy san'at, kino va sirk urush davrida xalqni ruhlantirish, jangchilarni ma'naviy qo'llab-quvvatlash, front ortidagi mehnatkashlarni safarbar qilish va g'alabaga ishonchni mustahkamlash vazifasini bajardi. Teatr san'ati sahna orqali tarixiy qahramonlik va zamonaviy vatanparvarlik g'oyalarini uyg'unlashtirdi. Musiqa san'atida jangovar qo'shiqlar, marshlar, front brigadalari konsertlari va simfonik asarlar keng tarqaldi. Tasviriy san'atda plakat, karikatura va portret janrlari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Kino ommaviy targ'ibot va kinoxronika orqali urush voqeligini keng auditoriyaga yetkazdi. Sirk san'ati esa xalqona tomosha, jasorat va ko'ngilochar-ma'naviy xizmat vazifasini birlashtirdi. Urush yillaridagi san'at to'liq erkin ijod maydoni emas edi. U siyosiy-mafkuraviy buyurtma, partiyaviy nazorat va harbiy davr talablari ta'sirida rivojlandi. Shunga qaramay, mazkur davr o'zbek san'ati uchun yangi tajribalar davri bo'ldi. Evakuatsiya qilingan ijodkorlar, mahalliy san'atkorlar va madaniyat muassasalari o'rtasidagi hamkorlik respublika san'atining professional o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қизил Ўзбекистон. – 1941. – 30 ноябрь.
2. О‘зМА, R-2087-jamg‘arma, 1-ro‘ухат, 100-ish, 8–9-varaqlar.
3. Қизил Ўзбекистон. – 1945. – 18 март.
4. О‘зМА, 2087-jamg‘arma, 1-ro‘ухат, 85-ish, 76-varaq; 103-ish, 51-varaq.
5. Корсакова А. Узбекский оперный театр. Очерки истории. – Т.: 1961. – С. 194–200.
6. Государственный русский драматический театр им. М. Горького. 20 лет. – Т.: 1955. – С. 8.
7. Уварова Г. Узбекский драматический театр. Очерк истории. – М.: 1959. – С. 174.
8. Qashqadaryo viloyati Davlat arxivi, 133-jamg‘arma, 4-ro‘ухат, 1-ish, 122–123-varaqlar.
9. История узбекской музыки. – М.: Музыка, 1979. – С. 90–95.
10. История узбекской Советской музыки. – Т. 1. 1917–1945. – Т.: 1972. – С. 269.
11. О‘зМА, 2087-jamg‘arma, 1-ro‘ухат, 86-ish, 174-varaq; 91-ish, 5–6-varaqlar; 100-ish, 16-varaq.
12. Рахманкулова И.А. Художественная жизнь Самарканда в годы Великой Отечественной войны 1941–1945 гг. Автореф. дисс. канд. искус. наук. – Т.: 1990. – С. 9–12.
13. Ўзбекистон киноматографияси. – Т.: 1958. – Б. 16.
14. Унгбоева Б.Ў. Ўзбекистонда 1920–1956 йилларда кино ва театр санъати тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 17–18.
15. Каримов Р. Совет Ўзбекистони санъати Улуг Ватан уруши йилларида. – Т.: 1970. – Б. 7–8.